

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI**

Sabohat HASHIMOVA

**XITOIY TILI
GRAMMATIKASI**

现代汉语语法

«Extremum-Press»
Toshkent – 2017

811.581'36 - *Хитой тили*,
Грамматика

Hashimova, Sabohat.

H 38 Xitoy tili grammatikasi / S. Hashimova. - Toshkent:
«Extremum-Press» нашриёти, 2017. - 176 b.

УО'К 811.581'36

КБК 81.2 Xit-2

Ushbu darslikni nashr etishda yordam bergan Xitoy Xalq Respublikasining O'zbekiston Respublikasidagi Elchixonasiga samimiy minnatdorchilik bildiramiz.

Darslik xitoy tili filologiyasi fanidan O'zbekiston Respublikasi oliy o'quv yurtlari uchun qabul qilingan davlat standartlariga muvofiq ilmiy-texnika dasturlar doirasida YoF-8-08- "Xitoy tili" loyihasi bo'yicha yaratilgan.

Har bir dars nazariy va amaliy qismlarga bo'lingan. Darslarni nazariy qismida xitoy tili grammatikasining morfologiya va sintaksisiga tegishli ma'lumotlar berilgan. Darslarni amaliy qismida esa har bir mavzuni mustahkamlashga qaratilgan mashqlar to'plami keltirilgan.

"Xitoy tili grammatikasi" Toshkent davlat sharqshunoslik instituti "Xitoyshunoslik" fakulteti o'quv-uslubiy kengashining 2017 yil 20-apreldagi 9-sonli qarori bilan xitoy filologiyasi mutaxassisligi sohasida bakalavriatura va magistraturada tahsil olayotgan talabalar uchun darslik sifatida nashrga tavsiya etilgan.

Muharrirlar:

X.Alimova, filologiy fanlari nomzodi, dotsent;
史冰冰 Shi Bingbing Lanchjou universiteti ilmiy xodimi.

Taqrizchilar:

S.Nurmatov, filologiya fanlari nomzodi;
S.Nosirova, filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

ISBN 978-9943-4859-0-7

© Sabohat Hashimova, 2017.

© «Extremum-Press» нашриёти, 2017.

2017/46
4349
Alisher Navoiy
nomidagi
O'zbekiston MKI

Грамматика китайского языка

Учебник разработан в соответствии с государственными стандартами Республики Узбекистан в рамках программ подготовки бакалавров и магистров по специальности “китайская филология”. При разработке и апробации учебника использован многолетний опыт преподавания автором грамматики китайского, английского, русского и узбекского языков в Ташкентском государственном институте востоковедения, Национальном университете Республики Узбекистан, Центральном университете национальностей КНР и в Пекинском университете иностранных языков. В основу учебника положены научно-методические материалы, собранные автором в период научной и преподавательской работы в Китае. Он охватывает результаты новых научных исследований по китайской грамматике, лексике, лексикологии, семантике, морфологии, морфонологии, фразеологии, генеративной и дескриптивной лингвистике и терминологии.

Учебник адаптирован к реалиям современного преподавания китайской грамматики в высших учебных заведениях Республики Узбекистан. Учебник обеспечен методическими материалами, упражнениями и заданиями, которые помогают качественно освоить грамматику китайского языка.

Книга предназначена студентам, обучающимся в бакалавриате, магистратуре по специальности «китайская филология», а также широкому кругу лиц, изучающим китайский язык самостоятельно и/или в специализированных курсах, а также интересующимся проблемами современного китайского языкознания.

Grammar of the Chinese language

The textbook was developed in accordance with the state standards of the Republic of Uzbekistan, with reference to this academic discipline in the framework of the preparation of bachelors and masters in the specialty "Chinese philology". Many years of the experience of teaching of the Chinese, English, Russian and Uzbek grammar at the Tashkent State Institute of Oriental Studies, the Central University of Nationalities of the People's Republic of China, Peking University of Foreign Languages and the National University of the Republic of Uzbekistan by the author were used in the development and testing of the textbook.

The textbook is also based on scientific and methodological materials collected by the author during the period of scientific and teaching work in China and Uzbekistan. It covers some of the research results on Chinese grammar, vocabulary, lexicology, semantics, morphology, morphonology, phraseology, generative and descriptive linguistics and terminology. The textbook is adapted to the realities of the current state of teaching Chinese grammar for the Uzbek-speaking audience in higher educational institutions of the Republic of Uzbekistan.

The textbook is provided with methodological materials, exercises and tasks that help you easily master the grammar of the Chinese language. The book is intended for students studying in bachelor's, master's and postgraduate courses in the specialty "Chinese philology", as well as a wide range of people who study Chinese language independently and / or in specialized courses, as well as interested in the problems of modern Chinese linguistics.

Muqaddima

Xitoy bilan serqirra va manfaatli aloqalarni rivojlantirishda xitoy tili alohida ahamiyat kasb etadi. Shu sababli xitoy tilini mukammal egallagan mutaxassislarni tayyorlash, xitoy filologiyasiga oid dolzarb masalalarni tadqiq etishni muhim ahamiyatga ega vazifa, deb qarash mumkin. Binobarin, jahonda xitoy tilini o'rganishga bo'lgan ehtiyoj jadal sur'atlar bilan oshib bormoqda. Masalan, xorijda xitoy tilini o'rganuvchilar soni qariyb 40 mln. kishini tashkil etadi. Xitoy universitetlarida bilim olishni istovchi xorijiy talabalar soni har yili 20% oshib bormoqda.

Konfutsiy ta'limotining ustunlaridan biri – bu til, tarix, adabiyot, san'at, madaniyat, ilm va fanga chuqur ehtirom hisoblanadi. Har qanday til kabi xitoy tili iqtisodiy va gumanitar aloqalarni ta'minlash hamda 5 ming yillik sivilizatsiya davrida to'plangan ma'naviy boylikni o'zida mujassam etgan manba, deb qaralishi lozim. Xitoy tili davlat va jamiyat tomonidan yakdil ravishda millatning muhim ma'naviy boyligi hisoblanadi. Davlat esa o'z navbatida xitoy tilini umummilliy konsensus, rivojlangan va uyg'unlashgan jamiyatni tashkil etishda muhim va samarali vosita deb biladi. Ma'lumki, Xitoyda 56 millat istiqomat qiladi ¹. Mamlakatning turli provin-siyalari va o'lkalarida xitoy tilining 8 asosiy dialekti mavjud. Bu esa xitoy tilini iyerogliflarga asoslangan tizimini mustahkamlash, mamlakatda yagona *putonghua* dialektini rivojlantirishni talab qiladi.

Xitoy tarixida tilga bo'lgan munosabat alohida o'rin tutgan. Xitoy tili islohotining birinchi qadami sifatida miloddan avvalgi 213-yilda imperator Qin Shihuang (259–210-yy.) amalga oshirgan islohotni keltirish mumkin. Imperator Qin Shihuang taxtga kelganida Xitoyda Han, Zhao, Wei, Yan, Qi, Chu va Qin knyazliklari

¹ Ван Цань. Национальности Китая. – Пекин: Межконтинентальное издательство Китая, 2004. – 8 с.

bor edi. Har bir knyazlik o'ziga xos iyeroglif yozuv tizimida ish yuritardi. Qin Shihuang imperiyani o'z tasarrufiga to'liq olgach ikki, ya'ni: "Barcha aravalar bir xil uzunlikdagi o'qda" va "Barcha iyerogliflar standart yozuvda" vazifalarini olg'a surdi. Iyerogliflar uchun qadimgi *Xiao zhuan* sistemasi qabul qilindi.

Xitoy milliy madaniyati va ma'naviyatida til yuksak o'rin egallaydi. Chuqur tarixga ega bo'lgan iyerogliflar va qadimgi yozuv manbalari xitoy millati va davlatshunosligi va umuman xitoy sivilizatsiyasining asosiy manbalari sifatida namoyon bo'ladi. Xitoy tili millat tarixi va uni o'z-o'zini anglash kafolati hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan kelib chiqib, 2007-yilda Xitoyda qadimgi 雅言 *yayan* klassik uslubida yaratilgan kanonik matnlarni deklamatsiya qilish ishlari yo'lga qo'yildi. Hukumat qaroriga binoan yozma manbalar, iyerogliflarning turli variantlari ifoda etilgan qadimgi matnlar va og'zaki xalq ijodiga oid manbalarni saqlash, ularni elektron va audio/video klassifikatorlarini takomillashtirishga oid ishlar keng miqyosda olib borilmoqda. Shu bilan birgalikda *kanton* dialektida ijro etilayotgan 越剧 *Yueju* operalari, Janubiy Fujian dialektidagi 南音 *nanin* sahna asarlari Xitoy Milliy madaniyati katalogi va YUNESKO umumbashariyat madaniy obidalari ro'yxatiga kiritilgan. Xalqaro tashkilotlar e'tiborini xitoy tiliga jalb etish bu bilan chegaralanadi desak, to'g'ri bo'lmas. So'nggi yillarda xitoy iyerogliflarini jahon madaniyati boyligining bir qismi deb tan olishga yo'naltirilgan harakatlar ham mavjud.

Xitoy tili murakkab tillar qatoriga kiradi. Uning 5 ming yillik tarixini o'rganish, 56 mingdan ziyod iyerogliflarni zamon talablariga mos keltirish masalalari dolzarb muammolardan hisoblanadi. Mazkur ishlar Xitoy tili Davlat Qo'mitasi 国家语言文字工作委员会 *guojia yuyan wenzi gongzuo weiyuanhui* Maorif, Madaniyat, Radio, Televideniye va Kinematografiya vazirliklari tarafidan boshqariladi.

Xitoy tarixiy an'analariga munosib ravishda 2001-yil 1-yanvar – XXI asrning ilk kuni 中华人民共和国国家通用语言文字法 *Zhonghua renmin gongheguo guojia tongyong yuyan wenzi fa* – XXR Davlat Tili va Yozuvi haqidagi qonun kuchga kirdi. Xitoy tilining davlat tili deb e'lon qilinishi bu tilni mamlakatning barcha fuqarolari millati, dini va jamiyatdagi o'rni, siyosiy ongi, axloqiy qarashlari va mentalitetidan qat'i nazar tan olganligini bildiradi. Bundan tashqari tilning davlat tili deb qabul qilinishi, davlat va jamoat idoralari va tashkilotlari mazkur tilni mamlakatning birinchi tili deb qabul etganligini anglatadi¹. Ma'lumki, xitoy tili qadimdan mamlakat kadrlar siyosati, kadrlarni tanlash, o'qitish, tarbiyalash, ularni ish bilan ta'minlash, attestatsiya qilish kabi vazifalar uchun asosiy mexanizmlardan biri bo'lib xizmat qilgan. Davlat idoralariga ishga kirishga talabgorlar 科举 *keju* – til bo'yicha davlat imtihonlarini topshirganlar. Bu imtihonlar tarixi Xan sulolasi (eramizdan avvalgi 206-y. – eramizning 220-y.) davrida yuzaga kelgan. Sun sulolasi (581–618-yy.) davrida bu tartib mukammallashtirilgan. Tartibga binoan, imtihonlarni muvaffaqiyatli topshirgan xodim sinov natijasiga ko'ra, davlat boshqaruv idoralari va mahkamalari sohasida ma'lum bir lavozimni egallash uchun nomzod bo'lgan. Imtihon mumtoz matnlarni yod bilish, normativ iyerogliflarni xatosiz yozish va to'g'ri talaffuz bilan o'qish va boshqa sinovlardan tashkil topgan. 科举 *keju* qariyb 13 asr davom etgan. Bu matnlar 《十三经》 *shisan jing* to'plamida chop etilgan. Tan sulolasi (618–907-yy.) – Xitoy madaniyati, san'ati va adabiyotining "oltin" davrida, 科举 *keju* imtihonlari majmuasiga she'r yozish ham kiritilgan. Bu davrda davlat idoralariga ishga kirish uchun tanlovda qatnashganlardan faqat 2–3% imtihonlarni muvaffaqiyatli topshira olgan. Qin sulolasining (1644–1911-yy.) so'nggi davrida, ya'ni 1905-yili

¹ Ханазаров К. К проблеме философии языка. – Т.: Узбекистан, 2007. – С. 19.

科举*keju* imtihonlari to'xtatilgan. Ammo, 1928-yili Xitoyda 科举*keju* imtihonlarini tashkil etuvchi maxsus 考试院 *kaoshi yuan* – vakolatli davlat mahkamasini tashkil etish haqida qaror qabul qilingan. 1954-yili 文字改革委员会 *Wenzi gaige weiyuanhui* – yozma xitoy tilini isloh qilish masalalari bo'yicha Davlat Qo'mitasi tashkil etilgan. 1985-yili unga Xitoy tili va Yozuvi masalalari bo'yicha Davlat Qo'mitasi nomi berilgan.

2004-yili xitoy tilining davlat, jamiyat va ommaviy matbuot manbalarida taraqqiyotini muttasil kuzatish maqsadida xitoy til resurslarini monitoring etuvchi – 国家语言资源监测与研究中心 *Guojia yuyan ziyuan jiance yu yanjiu zhongxin* – Davlat tili resurslarini tekshirish va tahlil qilish bo'yicha markazi tashkil etilgan. Markazning asosiy vazifalariga iyeroglif asosidagi yozuvni soddalashtirish, uni standartlashtirish, putonghua tilini maktab va og'zaki so'zlashuv tiliga aylantirish va boshqalar kiradi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 80% restoran, magazin, qahvaxonalar, mayda savdo do'konlari, aholiga xizmat ko'rsatish punktlar reklama va peshlavhalarida iyeroglif yozuv standartlarini buzib ishlatish hollari kuzatiladi. Yozuvni standartlashtirish va qisqartirishga bo'lgan e'tiroz aholini boshqa qatlamlarida ham uchraydi. Shu sababdan hukumat so'nggi yillarda til siyosatiga oid 20 dan ziyod qarorlar qabul qildi. Bu qarorlar qatoriga “Toponimlarda ierogliflarning qo'llash tartibi”, “Bosma nashrlarda iyerogliflarni ishlatilishini tartibga solish”, “Sport sohasida xitoy iyerogliflarini va fonetik transkripsiyasini ishlatish haqida”, “Iyerogliflar va fonetik alifboni korxonalar peshlavhalarida, savdo tizimida, tovarlarni o'rash jildlarida, reklama va boshqa sohalarda to'g'ri ishlatish haqida”, “Qisqartirilgan iyerogliflar yig'ma jadvalini amalga kiritish haqida”, “Shanhay bog'cha, boshlang'ich, o'rta maktablarida putonghuani keng yoyish va iyerogliflarni qo'llashni standartlashtirishga oid asosiy talablar” va boshqalarni keltirish mumkin. 1995-yilga kelib davlat xizmatiga

kiruvchi talabgorlar uchun alohida imtihonlar tashkil etildi. Imtihon standart ierogliflarni o‘qish va yozish, Pekin dialektida so‘zlash kabi topshiriqlarni qamrab olgan. Putonghuani rivojlantirish maqsadida 普通话水平测试 *putonghua shuiping ceshi* – putonghuani egallaganlik darajasini aniqlovchi sinovlarning uch darajasi qabul qilingan. Har bir daraja o‘z navbatida ikki kichik darajadan iborat. 1994–2010-yy. ushbu imtihonlarni 20 million nafar davlat idora va muassasalarida xizmat qiluvchi xodimlar, oliy o‘quv yurtlar o‘qituvchilari, radio, televideniye suxandonlari topshirganlar. Ushbu imtihonlardan o‘tish davlat xizmatida bo‘lgan har bir xodim uchun shart. 2008-yilda iyeroglif yozuvni egallash darajasini aniqlash maqsadida 汉字应用水平测试 *hanyu yingyong shuiping ceshi* imtihoni tashkil etildi.

Xitoy keyingi 25 yil davomida o‘sish sur‘atlari, mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish borasida qo‘lga kiritayotgan natijalari bilan butun dunyoni hayratda qoldirmoqda. Atigi 62 yil ichida Xitoyni yillik yalpi ishlab chiqargan mahsulot hajmi 333 marta oshib 6 trillion dollarga yetdi. Bu jarayon xususida Singapurning sobiq Prezidenti Li Kuan Yu: “Xalqaro maydonga faqat yangi ishtirokchigina emas, balki umumbashariyat tarixidagi eng buyuk ishtirokchi chiqmoqda. Bu – Xitoy” – deya fikr bildiradi. Ayni paytda hukumat xitoy tilini rivojlantirish, ommalashtirish, uni himoya etish va shu bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa masalalarga katta e‘tibor qaratmoqda. Davlat tomonidan tilni rivojlantirish bilan bog‘liq ishlarga ulkan mablag‘lar yo‘naltirilmogda. Bu ishlar boshlang‘ich, o‘rta va oliy o‘quv yurtlari o‘qituvchilari maoshlarini asta-sekinlik bilan oshirish, ta‘lim muassasalarini ta‘mirlash, qurish, zamonaviy texnika bilan jihozlash kabi ishlarni qamrab olgan. Shu bilan birgalikda o‘rta va oliy ta‘lim haqida bir qator qonunlar va qarorlar qabul qilingan. Xitoy bosqichma-bosqich o‘rta maktabni moliyalashtirish tizimini, o‘qituvchilar mavqeini mustahkamlab kelmoq-

da. 1999-2004-yillarda oliy o'quv yurtlarini davlat tomonidan moliyalashtirish hajmi ikki barobar oshdi va 2004-yilga kelib 10,4 mlrd. doll. tashkil etdi¹. Ushbu siyosatning ilk natijasi sifatida 2005-yildan boshlab jahonning 200 eng kuchli universitetlari safiga 6 Xitoy universitet kiritilganini ko'rsatish mumkin. Pekin universiteti esa "The Times" (Buyuk Britaniya) renking ro'yxatida 12-14-o'rinlarni egallab kelmoqda. 2020-yilda Xitoy oliy o'quv yurtlarida 300000 chet ellik talabalar ta'lim olishi rejalashtirilgan. Shunday qilib, oxirgi 12 yilda Xitoy oliy ta'lim haqidagi diplomni import qiluvchi mamlakatlardan eksport qiluvchi mamlakatga aylandi. Xitoyda ta'lim oluvchi chet el fuqarolarining umumiy soni xorijiy mamlakatlarda ta'lim olayotgan xitoy yoshlarining umumiy soniga nisbatan (ijobiy saldo) 20000 kishiga ko'p. 2020-yili Xitoyda oliy ta'lim sohasining eksport hajmi yiliga 1 mlrd. dollardan ziyod bo'ladi. O'rta va oliy o'quv tizimlarini moliyalashtirish va boshqarishni takomillashtirish bilan birga filologiya sohasidagi ilmiy ishlarga ham katta e'tibor berib kelinmoqda. Xitoy tilining izohli lug'atlari, xitoy va xorijiy tillar lug'atlarini nashr etish ishlariga katta mablag'lar ajratilmoqda. 2009-yil 20 yillik katta mehnat samarasi sifatida 《汉俄大词典》*Han-E Dacidian* "Xitoycha-ruscha lug'at" chop etildi. Davlat byudjeti hisobiga so'nggi yillarda Pekinda 8 ulkan kitob do'koni (supermarket) barpo etildi.

Kitob savdosi Xitoyda tez taraqqiy etayotgan sohaga kiradi. Sinxua agentligi ma'lumotlariga ko'ra, Xitoyda har kuni 1000 jild yangi kitob nashr etilmoqda. So'nggi yillarda iqtisod va moliyadan tashqari filologiya, tarix va psixologiya sohasidagi kitob va jurnallar katta diqqat-e'tiborni o'ziga jalb qilmoqda. Talab va ehtiyojdan kelib chiqib, Xitoy poligrafiya boshqarmasi yangi 5 loyihani ishlab chiqdi, bular: "Xitoy iyerogrliflar Banki",

¹ www.chinaedu.com

“Davlat raqamli nashriyotlar sistemasi”, “Raqamli nashriyotlar sistemasining huquqiy bazasi”, “Xitoy qadimgi kitoblarining to‘liq to‘plami”, “Raqamli nashriyot sohasida avtorlik huquqini himoya etish”.

So‘nggi yillarda xitoy tili Internet sohasida keng o‘rin egallamoqda. Xitoyning o‘zida 2016-yilga kelib xitoy tilida Internetdan foydalanuvchilar soni 400 mln.dan oshib ketgan. Iyeroglif yozuv, xitoy tilining asosiy dialektlari bilan bir qatorda rivojlanib borayotgan putonghua globallashuv davrida xitoy sivilizatsiyasi va identifikatsiyasini saqlab qolish, xitoy fuqarolarini va ko‘p millionlik xitoy diasporasini vatanparvarlik ruhida tarbiyalash asosini tashkil etadi. Xitoy tilini xorijiy mamlakatlarda keng targ‘ib etish va uni o‘rganuvchilar sonini ko‘paytirish maqsadida 1984-yili Xitoy maorif vazirligi huzurida chet ellarda xitoy tilini targ‘ib etish Boshqarmasi – 中国国家汉语国际推广领导小组 *Zhongguo guojia hanyu guoji tuiguang lingdao xiaozu* – Xanban tashkiloti ta‘sis etilgan. Xitoy tilidan chet tili sifatida imtihon topshirish uchun Amerika Qo‘shma Shtatlarida ishlab chiqilgan TOEFL (Test of English as a Foreign Language) metodologiyasi va standartlari qabul qilindi. 2009-yilga kelib xorijiy mamlakatlarda faoliyat yurituvchi Konfutsiy markazlari, institutlari va o‘quv kurslarining umumiy soni 523 tadan oshib ketdi.

O‘zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan xitoy tilini o‘rganishga alohida e‘tibor berib kelinmoqda. O‘zbek xitoyshunosligining bir necha ming yillik boy tarixini hisobga olib, Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, O‘zbekiston Milliy universiteti, O‘zbekiston Jahon tillari universiteti, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiyasi universiteti, Samarqand Davlat universiteti, Samarqand Davlat chet tillar instituti, Farg‘ona Davlat universiteti va boshqa bir qator oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlarida xitoy tili, adabiyoti, tarixi, iqtisodi kabi fanlarni o‘qitish amal-

ga oshirildi. So‘nggi yillarda xitoy tili sohasida yetuk mutaxassislar tayyorlashda ijobiy natijalarga erishildi. Toshkent davlat sharqshunoslik instituti olimlari tarafidan mamlakatimiz va Xitoyda nashr etilgan bir qator kitoblar, monografiyalar, maqolalar, institutda o‘tkazib kelinayotgan “Xitoyshunoslikning dolzarb masalalari”ga bag‘ishlangan ilmiy konferensiya, seminar va boshqa anjumanlar xalqaro tashkilotlar va chet el universitetlari tomonidan yuqori baholanmoqda. So‘nggi yillarda mamlakatimiz oliy o‘quv yurtlarida xitoy tili, adabiyoti, iqtisodi, siyosati va boshqa sohalarda 16 dissertatsiya himoya qilindi.

O‘zbekistonda xitoy tilini o‘qitish mustahkam ilmiy va pedagogik metodik asoslar vositasida olib boriladi. Toshkentda xitoy tilini o‘qitishga ixtisoslashgan 59-sonli o‘rta maktab, 6 akademik litseylar faoliyat ko‘rsatib kelmoqda. Bu o‘quv maskanlarida ko‘p yillik va serqirra tajriba to‘plangan. Ushbu o‘quv maskanlari o‘qituvchilari O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirligi, Konfutsiy markazi tomonidan reja asosida Xitoy universitetlarida malakalarini oshirib borish imkoniyatlariga ega. Xitoy tilini o‘qitishning ikkinchi va asosiy bosqichini O‘zbekiston Jahon tillari universiteti, Jahon iqtisodi va diplomatiya universiteti, Samarqand va Farg‘ona Davlat universitetlari, Toshkent davlat sharqshunoslik institutidagi bakalavriatura yo‘nalishi tashkil etadi. Bitiruvchilar Xitoyda rasmiy qabul qilingan “putonghua”da erkin muloqot qilish, umumiy matnlarni, og‘zaki nutqni xitoy tilidan o‘zbek va rus tillariga tarjima qilish ko‘nikmalariga ega bo‘lishadi. Bu sohalardagi tajriba mazkur talabalarning Xitoyning nufuzli universitetlarida 1–2 yillik tahsillari davomida takomillashadi. O‘zbekiston Respublikasi va Xitoy Xalq Respublikasi o‘rtasidagi Hukumatlararo Bitimlarga asosan har yili mamlakatimiz talabalari, aspirantlari, professor va o‘qituvchilari uchun Xitoy universitetlarida o‘qish va malaka oshirish uchun davlat grant o‘rinlari ajratiladi.

Xitoy tilining globalizatsiya jarayonida tez rivojlanib borishi O‘zbekiston Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Xalq ta’limi vazirligi, Tashqi ishlar vazirligi va boshqa vazirliklarga tegishli o‘quv yurtlarida mazkur fandan ta’lim berish metodikasi va metodologiyasini muntazam ravishda takomillashtirib borishni taqozo etadi. Bu maqsadlarda Toshkent davlat sharqshunoslik institutida elektron o‘quv qo‘llanmalari ishlab chiqilgan. O‘quv qo‘llanmalarning bir qismi 2012–2017-yy. bo‘lib o‘tgan “Innovatsion g‘oyalar, texnologiyalar va loyihalar IV Respublika Yarmarkasi”da aprobatsiyadan o‘tgan.

Toshkent davlat sharqshunoslik institutida yoshlarning ilmiy izlanishlarini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Iqtidorli bakalavr va magistrlar Xitoy filologiyasi kafedrasining professor va o‘qituvchilariga shaxsan biriktirilgan. Ushbu ishlarning natijasi sifatida haryili tashkil etilayotgan yosh iqtidorli xitoyshunos talabalar anjumanini keltirish mumkin. Bu anjumanlarda e‘lonqilingan ilmiy ma’ruzalar “Xitoyshunos talabalar ilmiy to‘plami”da nashr etib kelinmoqda. Bunday to‘plamlarni tashkil etish yoshlarning bilimni charxlash, ularni xitoyshunoslikning dolzarb sohalariga jalb etish, rag‘batlantirish, ularda ilmiy qobiliyatni shakllantirish va salohiyatni oshirishda katta ahamiyat kasb etadi. To‘plam o‘zbek, xitoy, rus, ingliz va boshqa tillarda tayyorlangan ilmiy maqolalarni jamlagani ham e‘tiborga molikdir.

Xitoy tilining yuqorida sanab o‘tilgan obyektiv sabablarga ko‘ra globalizatsiya jarayonida o‘z kuchiga ega bo‘lishi xitoy tilini o‘qitish va xitoy filologiyasi sohasida mutaxassislar tayyorlash ishlarini yanada takomillashtirish dolzarb vazifa sifatida qabul qilinishini va biz, o‘zbek xitoyshunosligi maktabining vakillari tomonidan bir qator vazifalarni amalga oshirishimizni taqozo etadi.

Birinchidan, o‘rta maktab va litseylarda xitoy tilidan ta’lim berishni zamonaviy darajaga ko‘tarish, o‘quv jarayonlarida

yangi metodlar, informatsion texnologiyalarni kengroq jalb etish lozim.

Ikkinchidan, xitoy filologiyasi sohasida bakalavriatura va magistratura ta'lim sohalarini bitirganlar o'z mehnat faoliyatida qanday muammolarga duch kelayotganliklarini tahlil etish zarur. Xitoy tili sohasida institut bergan bilim va tajriba tegishli vazirliklar, idoralar, kompaniyalar va firmalar talablariga qanday mos kelishini izchil monitoring etish lozim bo'ladi.

Uchinchidan, xitoy filologiyasi sohasida ta'lim oluvchi talabalar o'zbek, rus, ingliz tillarini mukammal egallashlari lozim. Xitoy filologiyasidan ta'lim berish texnologiyasi va standartlari xitoyshunoslikning qator dolzarb sohalarini qamrab olishi kerak. Ya'ni biz tayyorlagan mutaxassislar xalqaro savdo, investitsiya, bank va moliya, transport, kommunikatsiya, yuqori texnologiya, energetika, qishloq xo'jaligi va yurisprudensiya sohalarida ham kerakli ma'lumotlar bazasiga ega bo'lishlari lozim.

Mazkur darslik yosh va ilmga chanqoq talabalarga xitoy tili grammatikasini mukammal o'zlashtirishda foydali manba bo'lib xizmat qiladi degan umiddamiz. Zero, ilm talab qilish farz.

Anas inb Molik roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:

“Nabiy sollallohu alayhi vasallam: “Ilm talab qilish har bir musulmon zimmasiga farzdir”, dedilar”.

Ibn Moja rivoyat qilgan¹.

Siz azizlardan kitob haqida taklif, fikr va mulohazalarni kutib qolamiz.

Kamoli ehtirom ila,
Sabohathon Hashimova

¹ Мухаммад Содик Мухаммад Юсуф. Зикр ахлидан сўранг. – 5-Т.: Ҳилол нашр 2016. – 309 б. ISBN 978-9943-9045-7-6.

语法常用术语词汇表
Asosiy grammatik terminlar

1	语法	grammatika
2	词法	morfologiya
3	句法	sintaksis
4	语素（字）	morfema
5	词根	ildiz morfemasi
6	词缀	affiks
7	前缀	prefiks
8	后缀（词尾）	suffiks
9	派生词词尾	so‘z yasovchi suffiks
10	形态变化词尾	shakl yasovchi suffiks
11	单纯词	oddiy so‘z
12	合成词	murakkab so‘z
13	联合构成式	qo‘shma struktura
14	偏正构成式	atributiv struktura

15	动宾构成式	fe'l-obyektli struktura
16	主谓构成式	subyekt-predikat strukturasi
17	词类	so'z turkumlari
18	量词	klassifikator (hisob so'z)
19	实词	asosiy so'z turkumi
20	虚词	yordamchi so'z turkumi
21	名词	ot
22	数词	son
23	形容词	sifat
25	动词	fe'l
26	代词	olmosh
27	连词	bog'lovchi
28	介词	ko'makchi
29	词组 (词语)	so'z birikmasi
30	句子	gap
31	句子成分	gap bo'lagi
32	主语	ega
33	谓语	kesim
34	宾语	to'ldiruvchi
35	定语	aniqllovchi
36	状语	hol
37	补语	to'ldiruvchi

38	单句	sodda gap
39	复句	murakkab gap
40	陈述句	darak gap
41	疑问句	so'roq gap
42	感叹句	buyruq gap
43	祈使句	undov gap

1-DARS



名词

OT

Darsning maqsadi: ot turkumiga oid soʻzlarning morfologik va sintaktik xususiyatlarini yoritib berish, lokativ, temporativ va direktiv kabi tushunchalar haqida maʼlumot berish, otlarning yasash xususiyatlarini koʻrib chiqish.

Tayanch tushunchalar: morfologiya, sintaksis, semantika, standart otlar, shaxs otlari, atoqli otlar, mavhum otlar, lokativ, direktiv, temporativ, suffiks, affiks, prefiks, reduplikatsiya, morfema, kopulyativ struktura, atributiv struktura, feʼl-obyektli struktura, predikativ struktura.

Izoh

表示人或事物等名称的词叫做名词。按照名词的意义和语法特点，我们可以把它分为以下几类：

Kishi, narsa-buyum va joy nomini bildiradigan soʻz turkumi ot deb ataladi. Otlar semantik va grammatik xususiyatlariga koʻra quyidagi guruhlarga boʻlinadi:

一. 表示人和事物的名词 Odamlar va narsalarni ifodalovchi otlar:

a) 普通名词 Standart otlar: 朋友, 学生, 牛, 羊, 书, 门, 衣服。

b) 专有名词 Atoqli otlar: 莫斯科, 中国, 长城, 冬宫。

c) 集合名词 Jamlovchi otlar: 人民, 群众, 物品。

d) 抽象名词 Mavhum otlar: 理想, 观点, 标准, 意义, 道德。

二. 表示时间的名词 Temporativlar: 去秋天, 早晨, 明年, 现在。

三. 表示处所的名词 Lokativlar: 南方, 北面, 屋里。

四. 表示方位的名词 Direktivlar: 前, 做, 又, 后, 之上, 一下。

根据名词的构成可以分为: 单纯词, 合成词。

Leksik strukturasi jihatidan otlar quyidagilarga ajratiladi, ya'ni:

单纯名词 oddiy otlar va 合成词 murakkab otlar: 树, 人, 风, 蜘蛛, 维他命。

一. 附加式。派生词的名词由词根加派生词词缀组成 ildiz morfemasi va so'z yasovchi affiksdan hosil bo'lgan otlar:

1. 前缀 prefiksdan: 亚热带, 老爷, 阿爹, 小姐, 泛美国主义。

2. 后缀 suffiksdan: 椅子, 花儿, 势头, 学者。

2.1. 典型的名词后缀 otlarning standart suffikslari:

-子: 桌子, 刀子, 箱子, 尺子, 裙子, 筷子。

-儿: 画儿, 冰棍儿, 老头儿, 小猫儿。

-头: 木头, 石头, 骨头, 馒头, 罐头。

某些动词或形容词加“头”后可构成抽象名词, “头”读轻声, 如:

“头” tou suffiksi sodda fe'l va sifatlar bilan birga qo'llangan-da, abstrakt otlarni hosil qiladi. Bunda mazkur suffiks yengil ohangda o'qiladi, masalan:

想头, 念头, 吃头, 苦头, 头, 去头, 说头, 甜头。

2.2. 表示人的名词后缀 shaxs oti yasovchi affikslar:

一者, 一员, 一家, 一士, 一师, 一生, 一工, 一匠, 一手, 一长。如:

作者, 笔者, 记者, 领导者, 参加者, 旁观者;

教员, 学员, 演员, 会员, 理发员, 运动员, 采购员。

作家, 画家, 书法家, 歌唱家, 发明家, 科学家, 艺术家。

战士，博士，护士，女士，人士，烈士，骑士。

导师，医师，讲师，琴师，厨师，律师，工程师，药剂师。

学生，留学生，研究生，进修生，实习生。

木工，瓦工，电工；木匠，皮匠，铁匠；水手，对手，凶手。

2.3. 表示抽象，机械，形式，单位的半后缀 *mavhum ot, narsa-buyum oti va o'rin-joy oti yasovchi affikslar:*

一主义，一学，一论，一化，一度，一性，一则，一法；
一机，一器，一仪；

一形，一式，一型；一场，一厂，一站。如：

现实主义，浪漫主义，个人主义，集体主义，改良主义。

哲学，数学，文学，语言学，社会学，经济学，生物学。

人性论，相对论，进化论，无神论，唯物论，原子论。

军事化，集体化，电气化，工业化，合作化，国有化。

高度，温度，强度，密度，浓度，湿度，长度，溶解度。

理性，感性，急性，纪律性，可能性，代表性，积极性。

法则，准则，总则，细则，规则，原则，守则。

说法，看法，想法，用法，写法，做法，学法，疗法，染法。

录像机，打字机，电视机，发电机，起重机，收音机，计算机。

计时器，量角器，变压器，示波器，扫描器，给油器，吸收器。

水平仪，地球仪，经纬仪，绘图仪，投影仪，地仪，重力仪。

扇形，球形，十字形；新式，盒式，中式；微型，流线型。

市场，剧场，停车场；炼钢厂；加油站，汽车站，火车站。

三. 复合式。复合式的名词由两个或两个以上的词根（词素）组合构成。根据词的构成，我们可以把复合词分为以下：

Murakkab otlar ikki va undan ortiq ildiz morfemalari va ular orasidagi grammatik munosabatlar natijasida hosil bo'ladi. Struktura jihatidan murakkab otlar quyidagi guruhlarga bo'linadi:

1. 联合构成式 kopulyativ struktura: 开关, 父母, 衣服, 东西, 人民, 买卖。
2. 偏正构成式 atributiv struktura: 火车, 手表, 黑板, 电脑, 皮包, 名词。
3. 动宾构成式 fe'l-obyektli struktura: 关心, 吃香, 惊人, 结果。
4. 主谓构成式 predikativ struktura: 地震, 国庆, 冬至, 脸红。

三. 重叠式。名词还可以重叠, 如: 人人, 天天, 星星; 爷爷, 奶奶, 叔叔。

Otlar reduplikativ shaklda ham qo'llana oladi. Masalan: 人人, 天天, 星星; 爷爷, 奶奶, 叔叔。

Xitoy tilidagi ot so'z turkumiga oid so'zlarda reduplikatsiyaning 'AA', 'AABB', 'AAB' modellari mavjud.

Otlarning 'AA' redulikativ modeli.

Mazkur model asosan qarindoshlik atamalarini ifodalovchi so'zlarga xos: 爸爸 "ota", 妈妈 "ona", 姐姐 "opa", 妹妹 "singil", 公公 "qaynota", 婆婆 "qaynona", 伯伯 "amaki" (otaning akasi), 叔叔 "amaki" (otaning ukasi), 爷爷 "buva", 奶奶 "buvi" va boshqalar.

Bir bo'g'inli otlarning aksariyati reduplikatsiyaning 'AA' modeliga ega. Bunday otlarning ko'pi hisob so'z vazifasida qo'llaniladi va "har", "har bir" ma'nosini beradi: 天天 "har kuni", 日日 "har kuni", 月月 "har oy", 年年 "har yil", 队队 "har bir komanda", 区区 "har bir rayon", 国国 "har bir davlat".

Masalan:

人人都应该保护自然环境¹

¹ 故播刘。实用现代汉语语法。北京, 2003年。 - 页88.

“Har bir odam atrof-muhitni himoya qilishi zarur”;

你一个人要事事小心¹

“Siz har bir ishda ehtiyotkor bo‘lishingiz kerak”.

Otlarning ‘AABB’ reduplikativ modeli.

Mazkur model bo‘yicha yasalgan so‘zlar ko‘plik ma’nosini ifodalab, mazmuni umumlashtirishga xizmat qiladi: 山山水水 “tog‘ va daryolar”, 风风雨雨 “shamol va yomg‘irlar”, 家家户户 “har bir oila”, “har bir uy”, 祖祖辈辈 “ajdodlar”.

他时时刻刻不忘自己的责任²

“U hech qachon o‘z ma’suliyatini esdan chiqarmaydi”;

家家户户都帮助他恢复家屋³

“Har bir oila unga uyini tiklab olishga yordam berdi”⁴.

Otlarning ‘AAB’ reduplikativ modeli.

Bu model xitoy tili Pekin shevasining og‘zaki nutqiga xos. Masalan: 毛毛虫 “ko‘sak qurti”, 毛毛雨 “qirov”, 窝窝头 “bog‘irsoq” (zog‘ora unidan bug‘da pishirilgan non) va boshqalar. Ushbu model yangi so‘z hosil qilish uchun xizmat qiladi.

Xitoy tilida otlarda reduplikatsiya kam uchraydi. Bu hodisa, asosan, bolaning og‘zaki nutqida, shuningdek, nutqning emotsionalligini ko‘rsatish uchun qo‘llaniladi. Bunda reduplikativ ot birlamchi otning ma’nosi va funksiyasiga ega bo‘ladi. Masalan: xitoy tilidagi 饼 “biskvit”, “keks” so‘zi bolaning og‘zaki nutqida 饼饼 ko‘rinishiga ega.

处所词，时间词，方为词

Lokativ, temporativ va direktivlar

处所词的语法特点是能放在“在。。。 ”和“到。。。去”格式中作状语或补语。例如：在上海/到上海去。

¹ 故播刘。实用现代汉语语法。北京，2003年。- 页 89.

² 故播刘。实用现代汉语语法。北京，2003年。- 页 90.

³ 故播刘。实用现代汉语语法。北京，2003年。- 页 91.

⁴ Zhang Jin. Xiandai hanyu.- Shanghai, 1984. - 页 115.

Lokativ otlar “在。。。 ” va “到。。。去”konstruksiyalar tarkibida qo‘llanganda hol vazifasini bajaradi. Masalan: 在上海/到上海去。

一般名词不能放在上述的格式中，我们不能说“到桌子去”或“到老张去”。为了使用这些格式得加上“那儿”这个代词：“到桌子那儿去”/“到老张那儿去”。包含空间意义的名词都属于处所词。

Standart otlar mazkur konstruksiyalar tarkibida qo‘llanila olmaydi, ya’ni biz “到桌子去” yoki “到老张去” deb ayta olmaymiz. Mazkur struktura uchun “那儿” olmoshini qo‘llash lozim: “到桌子那儿去”/“到老张那儿去”. Xitoy tilida o‘rin-joy otlari lokativlarga kiritiladi.

时间词凡是表示时间，能放在“在。。。”，“到。。。 ”格式中，有时单独作时间状语或时间补语。Temporativlar “在。。。”，“到。。。 ” konstruksiyalar tarkibida qo‘llanganda, doimo vaqtni ifodalaydi va payt holi vazifasida keladi.

方位词的语法特点基本上跟处所词相同。汉语有下面的单纯方位词：南，东，西，北，上，下，前，后，左，右，里，内，外，中，间，旁，对。单纯方位词可以加上“面，边，头，方，部” 这些词尾组成合成方位词。

Direktiv otlarning grammatik xususiyatlari temporativ otlarniki bilan bir xil. Xitoy tilida quyidagi bir bo‘g‘inli sodda direktivlar ajratiladi: 南，东，西，北，上，下，前，后，左，右，里，内，外，中，间，旁，对. Mazkur direktivlar “面，边，头” kabi suffikslar bilan birga qo‘llanilganda, murakkab direktivlarni hosil qiladi.

方位词，既指空间，又指时间，名词加方位词可以构成处所词组和时间词组。

Direktivlar yo‘nalish va vaqtni ham ifodalab kelishi mumkin. Ot turkumiga oid so‘zlar bilan birga qo‘llanganda, mazkur so‘zlar lokativ va temporativ so‘z birikmalarni hosil qiladi.

名词的形态变化：名词的形态变化比较简单。在表示人或比喻人的名词后面可以加上“们”词尾来表示多数或全部的意思。如：朋友们，孩子们，同学们，师生们，姐妹们。但用“们”是有条件的。如果名词前有数词或名词作合成名词的谓语时，“们”不能使用。

Xitoy tilida ot so‘z yasalishi nisbatan sodda ko‘rinishga ega. Odamlar yoki odamlar bilan bog‘liq bo‘lgan so‘zlar ifodalanganda, mazkur so‘zlar tarkibida ko‘plik ma‘nosini beruvchi “们” suffiksi qo‘llanadi, masalan: 朋友们，孩子们，同学们，师生们，姐妹们。 Shaxs otlaridan oldin son turkumiga oid so‘zlar qo‘llanganda yoki otlar ot-kesim tarkibida kelsa, “们” suffiksi qo‘llanilmaydi.

名词句法功能。名词在句子里有六种用途：

Gap tarkibida otlar oltita sintaktik vazifani bajaradi:

1. 作主语Ega vazifasida: 北京是中国的首都。春天到了，天气暖和

了。师生们都上课。今天星期三。

2. 作谓语Kesim vazifasida: 一般名词不能单独作谓语，只能作合成词

谓语部分。但是时间名词可以单独作谓语。

Ot turkumiga oid so‘zlar ot-kesim tarkibida kesim vazifasida qo‘llaniladi. Temporativ otlar mustaqil kesim vazifasida keladi. Masalan: 今天星期天。他的生日四月二十七日。

3. 作宾语To‘ldiruvchi vazifasida: 我们学习汉语。他很喜欢书法。

你把本子交给老师。我们对汉语语法很感兴趣。

4. 作定语Aniqlovchi vazifasida: 电话铃响了。我和他都是东北人。汉俄词典我已经买了。图书室的书，我们都应该还。

5. 作状语Hol vazifasida: 名词，除了方位词，时间词和处所词以外，很少单独作状语。数量词组，代量词组，“前置词+名词+后置词”结构的词组可以作状语。Xitoy tilida direktiv, lokativ va temporativlardan tashqari boshqa otlar hol vazifasida

kamdan-kam qo‘llaniladi. Mazkur vazifada son-ot, yo‘nalish-ot strukturasi ega bo‘lgan so‘z birikmalari va “ko‘makchi + ot + yo‘nalishni bildiruvchi so‘z” strukturasi ega bo‘lgan so‘zlar qo‘llaniladi. Masalan: 我明天来。他到外边去。他一口气吃了一大半。他一个人来。这个任务历史地落在我们这一代人的肩上。

6. 作补语 Qo‘shimcha element vazifasida (buyu): 我们去公园。我要在中国学习三个月。他已经等了一个小时。

练习

Mashq va topshiriqlar

一。指出下列名词的构成式。

Otlarning strukturasi aniqlang.

A. 黑板, 语言, 同志, 时代, 学校, 火车, 开关, 主席, 革命,

小说, 师生, 皮带, 父母, 问题, 毛笔, 邻居。

B. 动力, 长短, 力量, 地震, 报告, 书籍, 广场, 朋友, 杂志,

兄弟, 发音, 星期, 科学, 电视, 观点, 语言。

C. 买卖, 课本, 领袖, 日夜, 回声, 耳目, 知识, 词尾, 衣服,

动物, 江河, 社会, 道德, 姐妹, 小说, 进口, 海拔。

二。用适当的词尾组成派生词。

So‘z yasovchi suffikslardan foydalangan holda ot so‘z turkumiga oid so‘zlarni

yasang:

A. 桌, 本, 拳, 作, 党, 集体, 钉, 封建, 球, 砖, 工业, 李,

阶级, 碟, 画, 木, 说书, 社会, 玩, 变, 代表, 工程。

B. 学, 政治, 教, 电气, 柜, 机会, 领导, 生理, 椅,

科学，送信，军国，花，积极，老，胖，爱国，铁，笔，运动，语，词汇。

三。用下面的时间词组成复合式词组。

Quyidagi temporativlardan murakkab soʻz yoki soʻz birikmalarini yasang:

早，午，晚，天，星期，礼并，周，旬，月，季（度），年，世界。

四。用“边·面·头”这些词尾造复合方位词。

“边·面·头” suffikslardan foydalangan holda murakkab direktiv soʻzlarni yasang.

五。在适当的名词后面加上“们”，并指出理由。

“们” soʻzini tegishli joyda qoʻllang va izohlab bering.

1. 今天学生.....都来了。2. 昨天三个学生.....没上课。
3. 他们都是工人.....。4. 你的那些姑娘.....真漂亮。5. 进来的人.....，我都认识。6. 这三位先生.....是从北京来的。7. 战士.....都瞧着河西的大山。8. 这几个干部.....去年就来了。9. 妇女.....，别闹，你们放心吧。10. 那五十多个人.....都要来吗？ 11. 男孩子.....不要去，只是女孩子.....要去。12. 今天来的这三个青年人.....都是我们校的毕业生。13. 党员.....举起手来！ 14. 在大学毕业后，我们都打算当翻译.....。15. 好多孩子.....在追赶着玩。16. 女士.....，先生.....，各位好。

六。将下列段文翻译成汉语，并说明“们”的用法。

Xitoy tiliga tarjima qiling va “们” soʻzining qoʻllanilishini tushuntiring.

Biz – xitoyshunoslarmiz. Guruhimizning barcha talabalari mazkur konferensiyada ishtirok etdilar. Ushbu yilda fakultetimizning uchta bitiruvchisi Pekinga ishga ketdi. Oʻqituvchilar ham, talabalar ham ushbu musobaqalarda ishtirok etdilar. Guruhimizning beshta talabasi besh bahoga loyiq deb topildi. Xonaga uchta odam kirib keldi, ular orasida mening doʻstim ham bor edi. Sizning taklifingiz yigʻilganlar tomonidan iliq qarshi

olindi. Tanishlarim orasida to‘rttasi xitoy tilini mustaqil holda o‘rganishni qaror qildi. Biz hammamiz universitet talabalarimiz. Mening ikkita opam va bitta akam bor. Bizning guruhimiz jami o‘n ikki kishidan iborat.

七. 阅读下列短文，并分析名词的用途。

Matnni o‘qing va otlarning funksiyalarini tushuntirib bering:

A. 今天是十月十一日，星期四。上午我们有四节课，两位老师给我们讲了课。丁老师给我们讲语法，白老师给我们讲会话。汉语语法不太难，而会话很难。下午我们有一节体育课。张老师教我们踢足球。我常常和同学们一起踢足球。

星期六下午和星期日，我们没有课。我们在家里休息。星期日我看电视，逛商店。我们常常去逛公园。

B. 一个朋友请王同志到他家里来吃饭。客人来了，桌上摆了很多好吃的东西。坐在王同志旁边的一个客人一边吃，一边在别人不注意的时候，把好吃的东西放进衣服的口袋里。王同志看见了，一句话也没有说，把茶壶拿起来就对着那个人的口袋倒。“老王，你怎么了？” - “我怕你的口袋吃了那么多好东西会渴的，想给它喝点茶”。

八. 把下列词语组成句子，并分析名词的用途。

Quyidagi so‘zlardan gaplar yasang va ulardagi otlarning funksiyalarini izohlab bering.

教—白老师—体育—学生。一本书—朋友—小张—送。给—钢笔—爸爸—小平—一支。萨沙—一件事—安娜—告诉。五本书—图书馆—还—玛丽。一个好消息—告诉—我—同学们。通知—明天去参观—老王—我。我弟弟—一本词典—借了—她。这位老师—非常好—教学—方法。以后—下课—阅览室—同学—去—我—宿舍—回。问题—学生—老师—回答。老师那儿—应该—学生—去。

九. 回答下面的问题（5-7种说法）。

Quyida berilgan savollarga javob bering (5-6 ta variant):

今天几月几号？今天星期几？现在几点？他今年多大？

十. 选适当的词语填空。

Qavslar ichida ko'rsatilgan so'zlardan foydalangan holda gaplardagi bo'sh joylarni to'ldiring.

(事实上, 实际上, 基本上, 表面上, 思想上, 生活上, 理论上, 事业上, 行动上, 客观上, 主观上, 国防上, 原则上)

1. 这种分析.....是合理的,是行不通的。
 2. 学校领导.....同意了我的意见。
 3. 抗日战争时期, 那个地方的军民.....遇到了很大的困难。
 4. 几年来, 他们俩.....互相关心支持,互相帮助,互相照顾, 日子过得很美满。
 5. 在....., 现代化武器多半是自动化或半自动化的。
 6. 这次, 由于大家.....重视了,积极了, 任务完成得相当顺利。
 7. 他.....很希望把工作搞好, 可是.....往往得不到理想的效果。
 8. 我们单位的工作计划.....定下来了。
- 十一. 根据所给条件填空。

Gaplarda ko'rsatilgan sharoitlarni inobatga olgan holda bo'sh joylarni to'ldiring.

1. 商店在剧场的东边, 理发馆在剧场的西边。剧场在.....中间。剧场在理发馆的.....。商店的西边是.....。理发馆的东边是.....。小明在小红的左边, 小力在小明的右边。

2. 小明的右边是.....。小红的右边是.....。.....左边是小红。.....左面是小明。小红在小明和小力的.....。

3. 甲走在最前边, 乙走在最后, 丙走在他们的中间。甲的后面是.....。丙的前面是.....。丙的后面是.....。乙的前面是.....。乙在丙的.....。

4. 红圈在白圈的里边, 蓝圈在红圈的里边。白圈在红圈的.....。红圈在蓝圈的.....。红圈的里头有.....。白圈的里边有.....。

5. 张家，李家，王家分别住在一层，二层，三层。张家的……住着李家。李家的……住着王家。王家的下面住着……。李家住在……家和……家的中间。

十二. 填空。

Bo'sh joylarni to'ldiring.

风很大，……走路的人很少。听了这个消息，她……非常高兴。在回学校的……，我们遇见了李老师。……应该互相帮助。工人们每天在……劳动，也是很累的。我们每天八点半上课，你应该……到教室。……，咱们一起到图书馆去吧。……，要把窗户关好。我们……就是无轨车站。……，我们都是汉学家。他说，他……不想结婚。上课的时候，他总是坐在……。小张……在书店买了一本词典。听说……要进行语法测验，你知道吗？

十三. 将下列短文翻译成汉语。

Xitoy tiliga tarjima qiling:

1. – Aytishlaricha, Chjan yangi mebel sotib olibdi. Afsus, unikida hali bo'lmaganman, sen-chi?

– Ha, bo'lganman. Hozir aytib beraman. Eshik ro'parasida devor yonida shkaf joylashgan. Uning yonida esa – televizor. Televizor ro'parasida divan va ikkita kreslo joylashgan. Ular orasida kichkinagina stol bor. Stol ustida xitoycha vaza, vazada esa gullar. Qarama-qarshi devor yonida katta stol va oltita stul bor.

2. – Eshitishimcha, Van yaqinda yangi kvartira sotib olibdi. Unikiga borib, tabriklab kelishga hech ham fursatim bo'lmayapti.

– Men unikida o'tgan kuni bo'lgan edim. Ajoyib to'rt xonali kvartirasi bor ekan. Kvartiraga kirishingiz bilan koridordan chap tarafda oshxona va hammom joylashgan. Ro'parada – mehmonxonona. Koridordan o'ng tarafda – Vanning kabineti. Mehmonxonaning sharq tomonida bolalar xonasi, g'arb tomonida esa yotoqxona joylashgan. Undan tashqari yana ikkita balkoni ham bor: mehmonxonona va oshxonada. Juda yaxshi kvartira ekan.

3. – Meni band emas deb o‘ylaysanmi? O‘zing o‘ylab ko‘r. O‘tgan kuni tushliggacha darslarim bor edi, tushlikdan so‘ng esa kutubxonaga bordim va u yerda kechqurun soat yettigacha qolib ketdim. Kecha ertalabdan yana darslar, uchdan so‘nggina bo‘shadim. Uyga soat to‘rtida yetib keldim. Tushlik qilguncha soat besh bo‘libdi. Bugun esa grammatikadan yozma ishim bor edi. Men shu yozma ishga tayyorlanay deb soat to‘qqizgacha band bo‘ldim. Bu faqat shu kunlardagi ahvol, bir haftadan keyin esa konferensiyamiz bor, hali unga ham maqola yozishim kerak. Oy oxirida matematikadan musobaqamiz boshlanadi. Bir oydan keyin esa sessiya ham kelib qoladi. U paytda kun bilan tunni farqiga bormay qoladi odam. Sen esa menga “band emassan-ku” deysan, a!

Mustaqil ta’lim uchun savol va topshiriqlar:

1. Xitoy tilida ot yasovchi suffikslar -子, -儿, -头, -者, -员, -家, -士, -师, -生, -学 haqida ma’lumot bering va misollar keltiring.
2. Xitoy tilida “lokativ otlar” haqida nima bilasiz? Misollar keltiring.
3. Xitoy tilidagi otlarning sintaktik funksiyalari haqida ma’lumot bering.



2-DARS



数词

SON

Darsning maqsadi: son turkumiga oid soʻzlar haqida maʼlumot berish, son darajalarini oʻrgatish, foiz, kasr, tartib raqamlarni, taxmin sonlarning yasalish xususiyatlarini koʻrib chiqish.

Tayanch tushunchalar: miqdor sonlar, butun sonlar, kasr sonlar, tartib raqami, maxraj, surʼat, foiz, taxmin sonlar.

注解

表示数目或顺序的词叫做数词。表示数目多少的叫基数词，表示次序先后的叫序数词，基数词可以分成整数，分数和倍数。

Sonning nomini, narsa-buyumning son-sanogʻini, tartibini bildirgan soʻzlar turkumi son deb ataladi. Miqdorni ifodalovchi sonlar miqdor sonlar, tartibni ifodalovchi sonlar esa tartib sonlar deyiladi. Miqdor sonlar butun va kasr sonlarga boʻlinadi.

(-) 现代汉语整数是四位一级，位数顺序如下：亿级（千...百...十... 亿），万级（千...百...十...万），百级（...百），个级（千百十个）。

Hozirgi xitoy tilida sonlarning toʻrt darajasi mavjud: 亿 (yuz million) darajasi oʻz ichiga yuz milliard, oʻn milliard, bir milliard va yuz millionni oladi; 万 (oʻn ming) darajasi oʻz ichiga oʻn million, million, yuz ming va oʻn mingni oladi; 百 darajasiga yuz sonlari kiradi; 个 darajasi ming, yuz, oʻn va bir birliklaridan iborat boʻladi.

一个数列中间有空位，不管空几位，都读一个《零》。Agar sonlar tarkibida nollar mavjud bo'lsa, ular nechta darajani egallamasin, faqat bir marta o'qiladi. Masalan: 1 8 0 0 0 0 0 0 2 1 — 十八亿零二十一, 3 0 0 0 3 — 三万零三, 6 0 5 0 0 0 9 9 — 六千零五十万零九十九。

如果空位在后，不管空几位，空位后的部分都可略去不说。Agar nol soni gap oxirida qo'llanilsa u o'qilmaydi. 如: 3 6 0 — 三百六(十), 5 7 0 0 0 — 五万七千, 2 0 4 0 0 0 0 0 0 — 两亿零四百万。

现代汉语有《二》和《两》都表示《2》，但用法不同。量词前用《两》：两件衣服；两个房间；两本书。度量衡单位前，《二》，《两》均可。《十》前只能用《二》；《百》，《千》，《万》，《亿》位于数列中间时，一般用《二》；《千》，《万》，《亿》前常用《两》：二十，二百二十万，两千二百万，两亿二千万。序数，分数，小数以及基数的个位数，都用《二》：第二，二月，二楼，零点二，百分之二，二十二。

Hozirgi xitoy tilida ikki sonini ifodalash uchun ikkita yuzuv belgisi 二 va 两 qo'llaniladi. Mazkur ikkita sonni qo'llashga doir bir nechta qoidalar mavjud. Hisob so'zlar bilan birga doimo 两 soni, o'lchov birliklarini ifodalovchi so'zlar bilan esa ikkita sondan biri qo'llanishi mumkin. O'n birliklarini ifodalovchi sonlar bilan doimo faqat 二, yuz, ming, o'n ming va yuz million sonlar tarkibi o'rtasida 二 soni, ming, o'n ming va yuz million sonlarining boshida doimo 两, tartib sonlar, kasrlarda 二 qo'llaniladi.

(二) 现代汉语表示分数时，通常的说法是《几分之几》，分母在前，分子在后。分数前有整数，说法是：《几又几分之几》。Hozirgi xitoy tilida kasr sonining oddiy formulasi 几分之几 tarzida ifodalanadi. Bunda formula boshida raqam sur'ati, oxirida esa maxraji ifodalanadi. Agar kasr soni ichiga butun raqam kiritilgan bo'lsa, unda u kasr sonidan 又 belgisi bilan ajratiladi va

几又几分之几 formula tarzida ifodalanadi. Masalan: $2 / 3 -$ 三分之二, $3 / 7 -$ 七分之三。

分母为百的叫百分数, 读作《百分之几》. Agar maxraj vazifasini 100 raqami bajarsa, unda bu raqam foizni ifodalovchi son bo'lib hisoblanadi va u 百分之几 tarzida ifodalanadi. Masalan: 45% - 百分之四十五, 201% - 百分之二百零一。

(三) 序数。Tartib raqamlari. 表示次序一般的说法是整数前面加《第》. Tartib raqamlari xitoy tilida prefiks 第 yordamida ifodalanadi. Bunda mazkur prefiks raqam oldidan qo'yiladi. Masalan: 第一, 第二, 第九, 第十八等。表示《第一》的可以用《头》来代替。第一 o'rniga aksariyat hollarda头 ni qo'llash mumkin. Masalan: 这次考试, 他得了头一名。

不定数 / 概数 / 约数

Taxmin sonlarning ifodalanishi

概数有以下几种表达方式。

Xitoy tilida taxmin sonlarning quyidagicha ifodalanish usullari mavjud:

1. 两个相邻的数词连用, 如: 八九千, 七八岁, 两三个, 来了三五百人, 四六天就回来。Ikkita raqamni ketma-ket qo'llash orqali, masalan: 八九千, 七八岁, 两三个, 来了三五百人, 四六天就回来。

2. 数词后加上表示概数的词语。主要有: 《来》, 《多》, 《左右》《上下》等。Raqamlardan keyin taxminiy sonni ifodalovchi 来, 多, 左右, 上下 kabi so'zlarni keltirish orqali.

练习

一。用汉语写出下列各数。

Quyidagi birliklarni xitoy sonlarini qo'llagan holda yozing.

2374; 81351; 942705; 3705389; 56702106; 923470804

; 248902004; 79040080400; 3900410; 240864201
; 79403248678; 900100603.

1/5; 3/4; 5/6; 7/10; 5/15; 40/100; 65/100; 3 7/12; 17
5/7; 8 3/9.

7, 09; 12, 62; 0, 004; 25, 9.

23, 6%; 1, 7%; 0, 47%; 0, 05%; 10, 003%; 16
, 04%.

二. 用阿拉伯数字写出下面的数字并指出它们的种类。

Quyidagi sonlarni arab raqamlari bilan yozing.

五万三千零八; 七十四万一千二百六十四; 百分之六点
四; 第九十九; 增长了三千八百倍; 六亿三千万零七百零
四; 九百六十五亿三千四百八十九万六千三百二十九点四
三; 六万三千零三十八点零一; 二十八万七千八百五十九点
二; 三分之四; 三十九点九零九七; 二十三又十一分之五;
一千八百零四点八三; 零点二零九; 五十亿; 十亿一千三百
万; 二亿八千万; 三百多; 五十以上; 五百万左右。

三. 计算下列数学题。

Quyidagi misollarni yeching:

(A) $935710+315902=$; $314795000-237291400=$
; $4109215+25749105=$; $12952156721-10372947517=$
; $32745913 \times 2=$; $27964780424:2=$; $115413135 \times 5=$;
 $2312540121:3=$;

(B) $4/5+3/7=$; $27/9-12/3=$; $32/3+44/5=$; $2,3 \times 7,05=$; $4,8:0,2=$;
 $5\% \times 5\%=$; $1,5 \times 6,05=$; $6,04 \times 3=$; $0,3\% \times 12000=$.

四. 将下列句子译成中文。

Xitoy tiliga tarjima qiling:

Har oyning birinchi seshanbasida biz ishlab chiqarish bo'yicha
majlis o'tkazamiz. Devorda uning yaqinlari va do'stlarining
besh-oltita rasmlari osig'liq turibdi. Bu talabada yuzga yaqin xi-
toy tiliga taaluqli lug'at va kitoblar bor. Xitoyning 80% aholisi
Xan millatiga oid. To'rtinchi kurs talabalari uch mingdan ziyod
iyerogliflarni biladi. Kecha biz bir soatdan ortiqroq vaqt davo-

mida o'rmonda aylandik. Sizlar ikkita matnni tayyorlab kelishlaringiz kerak: birinchi matnni tarjima qilishlaringiz, ikkinchisini esa gapirib berishlaringiz kerak bo'ladi. Bizning zavodimizning ishlab chiqarish hajmi ushbu bir yil ichida 1,5 oshdi. Neftni sotish hajmi birinchi kvartal bo'yicha 3% kamaydi. Institutimizning har bir uchinchi xodimi til malakasini chet elda oshirib kelgan.

五。用汉语说出得数来。

Xitoy tilida javob bering.

四百的八十倍是...；两万五千是五千的...倍；三百七十五增加二十七倍是...；七千的三点五倍是...；四千二百增加到六倍是...；三千的百分之二十五是...；六万三千八百一十四减少了五分之一是...；十亿人口的百分之零点是...人；九百的三十倍是...；二亿的二十五倍是...。

六。把下面的短文译成乌兹别克语，并用汉语朗读这篇短文，注意数字的读法。

Raqamlarning o'qilishiga e'tibor bergan holda o'qing va o'zbek tiliga tarjima qiling:

中国第三次全国人口普查材料

一九八二年七月一日中国举行了第三次人口普查，数字如下：

一. 中国29个省，市，自治区和现役军人的人口是1008175288人，同一九六四年第二次全国人口普查的964581759人相比，十八年间共增长143593493人，年平均增长率为2，1%。

二. 29个省，市，自治区和现役军人的人口中，男性占519433369人，女性占488741919人；汉族人口为936003824，各少数民族人口为72171464人。

三. 29个省，市，自治区和现役军人的人口中，有大学毕业文化程度的4414495人，高中文化程度的66478028人，初中文化程度的17877140人，小学文化程度的355160310人，文盲和半文盲为235820002人。

四. 29个省，市，自治区1981年出生人口为20689004人，

出生率为20, 91% , 1981 年自然增长的人口为14399601, 自然增长率为14, 5%。

五. 29个省, 市, 自治区中, 居住在城镇的总人口为206588582人。

六. 中国人民解放军现役军人的人口总数为4238210。

七. 把下列的句子译成乌兹别克语并说明表示概数的方法。

Quyida berilgan gaplarni o'zbek tiliga tarjima qiling va taxminiy sonlarning ifodalanishini tushuntirib bering:

隔河有几点火光, 像是村落。幼儿的母亲是一个三十多岁的妇女。我们来到他家将近一个月了。再过三四年, 我也得跟你一样。他带来了许多痛心的消息。休息了大约有半个小时, 他又起身去劳动。接连十几天, 走的全是不熟悉的地方。预计今年全国完成基本建设投资约七百亿元。约莫八点钟, 我们已经离开了家。他的头发好象有好几个月没理过了。她哥哥二十七八了。请你考虑一下, 最好二十四个小时以内给我一个满意的答复。不几天就要下雪了。一个月只省出五百块钱左右。他是四十开外的人了, 要说不老, 也不年轻了。约莫是在早上三点钟左右吧, 一辆大卡车停在我们家的门口。十来个候车的旅客坐在各自的行李上。几百万元, 这不是小事。

八. 模仿句子。

Quyidagi gaplarga qarab yangi gaplar tuzing:

他跑了十几步就停下来了。他的衣服好像好几天没洗过了。二十来个人站在外边候车。只来了十个人左右。她来到这儿将近一年了。十五岁以上的都得去工作。再过两三天, 天气就好了。我身上仅有十来块钱了。一个五十岁上下的女人站在我面前。

九. 判断下列句子的正误, 并将错的改正过来。

Quyidagi gaplarning to'g'ri-noto'g'ri ekanligini aniqlang va xatolarni tuzating:

我们班有十个来学生。他已经学了十来课书了。春节左右

王刚要回家乡去一趟。老师的孩子很小，看上去五岁上下。我们的工厂去年生产一千万吨化肥，今年生产二千万吨，今年的产量是去年的一倍。小梅去天津了，国庆前后回来。

十。把下列句子译成汉语。

Xitoy tiliga tarjima qiling:

1. Yer – Quyosh sistemasining sayyoralaridan biridir. Uning quruqlik yer maydoni 149 mln. kv. km., bu esa yer sayyorasi maydonining 30% tashkil qiladi. Yerning suv yuzi maydoni 361 mln. kv. km., ya’ni yer sayyorasi maydonining 70% tashkil qiladi.

Yer yuzida oltita materik joylashgan. Ulardan eng yirigi Osiyo hisoblanib, uning maydoni 44,4 mln. kv. km.ga teng. Afrika maydoni – 30 mln. kv. km. Shimoliy Amerika (Markaziy Amerikani hisobga olgan holda) maydoni – 24,3 mln. kv. km. Janubiy Amerika maydoni 18 mln. kv. km. Yevropa maydoni – 10, 5 mln. kv. km. Yer yuzidagi eng kichik materik bu – Avstraliyadir. Uning maydoni 7,7 mln. kv. km.. tashkil etadi.

Yer yuzini to’rtta okean yuvib turadi. Bularndan eng kattasi – Tinch okeanidir, uning maydoni 178684 ming kv. km. Yer yuzidagi eng kichik okean bu – Shimoliy okean, u maydon bo’yicha Tinch okeaniga qaraganda 10 marta kichikroqdir. Atlantika okeani maydoni 91 ming kv. km. Hind okeani maydoni esa – 76174 ming kv. km.

1. O‘zbekiston Respublikasi: *hududi va iqlimi.*

Geografik joylashuvi: O‘zbekiston Respublikasi Amudaryo va Sirdaryo oralig‘ida joylashgan, maydoni – 447,4 ming kv. km. Respublika chegarasi g‘arbdan sharqqa – 1425 km, shimoldan janubga qadar – 930 km.

